
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

CONTENTS

LINGUISTICS		**4**
Sulaymanova N.J.	A comparative analysis of the cognitive-semantic features of conceptual metaphors in English and Uzbek	5
Allayarova M.T.	Linguocognitive and linguocultural features of figurative toponyms in Uzbek and English	13
Tashpulatova Sh.Z.	Linguopsychological Foundations of the Expression of Mental States in English and Uzbek	20
Rakhimova U.S.	The poetics of the mother image in 19th-century English novels: the interpretation of biological and surrogative motherhood	27
Umarova Sh.I.	Combinatorial properties of collocations	33
Suvanova Kh.B.	Linguocognitive and pragmatic features of female inner speech: a comparative analysis of V. Woolf's "Mrs Dalloway" and O. Hoshimov's "Ikki eshik orasi"	41
Pazilova N.M., Nancy M. Ackles	National-cultural code and the linguistic construction of social identity in Jura Fozil's "The garden": A Linguopragmatic study	48
Saloxiddinov M.Sh.	Article title: cognitive-axiological features and linguocultural representation of the family concept in Uzbek and English	61
Kosheva D.Kh.	Linguocultural analysis of oral discourse: key parameters and methodological cautions	72
Jo'rayeva N.S.	Semantic gradation and stylistic differentiation of verbs expressing smiling in English and Uzbek	81
Abdulkhaeva M.M.	The role of paragraphemic devices in the theoretical and stylistic analysis of written discourse	87
Pazilova N.M., Makhmudova M.N.	Abdurauf Fitrat's term-formation principles and the semantic-functional adaptation of artificial intelligence terms into Uzbek	93
Pazilova N.M., Imomova Z.M.	Speech strategies and gender roles in Abdurauf Fitrat's family discourse: a linguopragmatic analysis of "Oila"	100
Shakurova N.Kh.	National-cultural and cognitive features of the concept "Mother" in English and Uzbek	107
Abdujalilov M.I.	The linguistic nature of lexical units denoting attributes in Uzbek and Russian	117
Chulliyev N.A.	The theoretical foundations of constructing and expressing collective knowledge in political discourse	128
Song D.	Multilingual guided interpretation mechanisms for foreign tourists in living museums: A case study of the Konigil Tourism Village in Samarkand	138

The Lingua Spectrum
Cogito, ergo sum

Jurnal Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan 2025-yil 4-yanvar kuni 366/5-sonli qaror bilan tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Linguopsychological Foundations of the Expression of Mental States in English and Uzbek

Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi
shirinatoshpolatova@icloud.com
PhD, Senior Lecturer,
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Annotation *This article examines the linguistic and psychological foundations of expressing mental states in English and Uzbek. Particular attention is paid to the interaction between speech production, cognitive and psychological processes, individual experience, subjective perception, and communicative intention. Speech production is viewed as a dynamic process involving the perception and interpretation of external or internal stimuli, the formation of meaning, the selection of linguistic units, and their realization within a specific communicative context. Literary discourse is considered an important source for analyzing the development, awareness, and verbal representation of psychological experiences because it allows inner states to be represented through dialogue, narration, metaphor, physical reactions, and character behavior. Based on examples from Uzbek and English literary texts, the study identifies several linguo-psychological mechanisms of mental-state representation, including direct naming, physiological reaction, behavioral expression, memory activation, spatial association, verbal address, inner speech, repetition, metaphorical and symbolic expression, internal resistance, and silence. The analysis demonstrates that the representation of mental states is shaped by the interaction of language, cognition, individual experience, subjective attitudes, and communicative context. The findings highlight the importance of a contextual approach to the interpretation of psychological meanings in literary discourse.*

Keywords *Linguopsychology, mental state, psychological experience, literary discourse, cognitive process, individual experience, communicative intention, physiological reaction, memory, inner speech, metaphor, symbolic expression*

Ingliz va o‘zbek tillarida ruhiy holatni ifodalanishining lingvopsixologik asoslari

Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi
shirinatoshpolatova@icloud.com
PhD, Katta o‘qituvchi,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida ruhiy holat hamda ruhiy kechinmalarning ifodalanishi lingvopsixologik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Ruhiy holatlarning nutqda aks etishi insonning kognitiv jarayonlari, individual tajribasi, kommunikativ niyati, vaziyat va subyektiv talqini bilan bog‘liq holda yoritiladi. Tadqiqotda nutqning shakllanish jarayoni, fikr va so‘z munosabati, ruhiy kechinmalarning til vositalari orqali ifodalanishi hamda badiiy diskursning mazkur jarayonni o‘rganishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Badiiy matnlardagi dialog, muallif nutqi, ichki nutq, metafora va ramziy ifodalar orqali qahramonlarning ruhiy holatini namoyon etish usullariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, ruhiy holatni*

ifodalashning bevosita nomlash, fiziologik reaksiya, xatti-harakat, xotira, fazoviy assotsiatsiya, takror, ichki qarshilik va sukut kabi lingvopsixologik mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Qiyosiy tahlil ingliz va o'zbek tillarida emotsional kechinmalarning verbal ifodasi milliy-madaniy xususiyatlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Bu esa lingvopsixologik tahlilda til va madaniyat munosabatini chuqurroq yoritish imkonini beradi. Shu bilan birga, ingliz va o'zbek tillaridagi materiallar asosida ruhiy holatlarning ifodalanishida umumiy va o'ziga xos jihatlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari ruhiy kechinmalarning verbal ifodasi til, tafakkur, kognitiv jarayon va kommunikativ vaziyatning o'zaro aloqasi asosida shakllanishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar *Lingvopsixologiya, ruhiy holat, ruhiy kechinma, badiiy diskurs, kognitiv jarayon, individual tajriba, kommunikativ niyat, fiziologik reaksiya, xotira, ichki nutq, metafora, ramziy ifoda*

Лингвопсихологические основы выражения психического состояния в английском и узбекском языках

Ташпулатова Ширина Зиёвиддин кизи
shirinatoshpolatova@icloud.com
PhD, Старший преподаватель,
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Аннотация *В статье исследуются особенности выражения психического состояния в английском и узбекском языках в лингвопсихологическом аспекте. Основное внимание уделяется взаимосвязи речевой деятельности с психическими и когнитивными процессами, индивидуальным опытом, субъективным восприятием и коммуникативным намерением говорящего. Формирование речевого высказывания рассматривается как последовательный процесс восприятия внешнего или внутреннего воздействия, его осмысления, формирования содержания, выбора языковых единиц и их реализации в конкретной коммуникативной ситуации. Художественный дискурс рассматривается как значимый материал для комплексного анализа способов возникновения, осознания и языкового выражения психических переживаний. На материале художественных произведений выявляются основные лингвопсихологические механизмы репрезентации психического состояния: непосредственное называние переживания, физиологическая реакция, поведенческое проявление, актуализация памяти, пространственная ассоциация, речевое обращение, внутренняя речь, повтор, метафорическое и символическое выражение, внутреннее сопротивление и молчание. Особое внимание в исследовании уделяется коммуникативным функциям лексических, семантических и стилистических средств выражения психических состояний. Сопоставительный анализ показывает, что вербализация эмоциональных переживаний в английском и узбекском языках тесно связана с национально-культурными особенностями. Это позволяет глубже раскрыть взаимосвязь языка и культуры в рамках лингвопсихологического анализа.*

Ключевые слова *Лингвопсихология, психическое состояние, психическое переживание, художественный дискурс, когнитивный процесс, индивидуальный опыт, коммуникативное намерение, физиологическая реакция, память, внутренняя речь, метафора, символическое выражение*

Lison – ijtimoiy sharoitda shakllangan va umumiy kommunikativ imkoniyatlarni taqdim etadigan hodisa, nutq ana shu imkoniyatlarning muayyan shaxs tomonidan aniq bir vaziyatda tanlanishi va qo'llanishi natijasidir. Shu bois nutqni lingvopsixologik jihatdan tahlil qilishda faqat uning nima sababdan aynan shu shaklda tuzilganiga, mazmunning ongda qanday shakllanganiga, so'zlovchi lisoniy tanlovni qay tarzda amalga oshirganiga e'tibor qaratilishi lozim. A. Leontyev nutqni inson faoliyatining o'ziga xos turi sifatida ko'rib, uning motiv, maqsad va faoliyatning boshqa tarkibiy qismlari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. (Леонтьев, 2003).

L.S. Vygotskiy fikr va so'zning o'zaro munosabatini fikrdan so'zga va so'zdan fikrga tomon kechadigan dinamik jarayon sifatida talqin qiladi. (Vygotsky, 1986). Shaxs avvalo tashqi yoki ichki ta'sirni sezadi, idrok etadi, ajratadi, anglaydi, xotirasidagi mavjud bilim va tajriba bilan bog'laydi, shundan keyingina uni mazmun sifatida shakllantiradi. Bu mazmun kommunikativ ehtiyoj asosida nutqda voqelanadi. Shu ma'noda nutqning yuzaga kelishida *ta'sirlanish, idrok etish, anglash, mazmunni shakllantirish, lisoniy birliklarni tanlash, nutqiy strukturasini shakllantirish, ifodalash* jarayonlari ketma-ketligi mavjudligini ta'kidlash lozim.

Inson ruhiyatida yuzaga keluvchi muayyan holatlar, kechinmalar uning ongidagi jarayonlar bilan chambarchas bog'liq. Zotan, kishi biror ta'sir, voqea-hodisani ongida idrok etadi, anglaydi va subyektiv tajribasi asosida mohiyatni tushunadi. Shu jarayon natijasida yuzaga keluvchi ruhiy holat nutqda o'z ifodasini topadi. O'z navbatida, holatning ifodalanishi va tasvirlanishiga ijtimoiy axloq meyorlari, gender stereotiplari, e'tiqodiy va subyektiv qarashlar kabi omillar ta'sir o'tkazadi. Mana shu murakkab jarayonlar tahlili uchun insonning ichki dunyosi, kechinmalari va subyektiv tajribasini batafsil yoritadigan badiiy asarlar diskursi munosib material bo'la oladi. Zero, aynan badiiy asarda holat nomini qayd etib o'tish bilan cheklanmasdan ruhiy kechinma mazmunini dialoglar, muallif tasviri, metaforalar bilan obrazli talqin qilish imkoniyati bor. Badiiy diskurs ruhiy holatning qanday yuzaga kelishi, anglashilishi, tasvirlanishi va ifodalanishini bir butun kontekstda tahlil qilish imkonini beradi. Bu jihat M. Hallidayning tilning funksional tabiatiga oid qarashlari bilan hamohangdir. Olim tilning shakli uning inson hayotida bajaradigan vazifalari bilan bog'liqligini ta'kidlab, "Language is as it is because of the functions it has evolved to serve in people's lives" ya'ni til inson hayotida muayyan vazifalarni bajarish uchun rivojlanib shu shaklga kelgan" (Halliday, 1978) deya qayd etadi. Bu nuqtayi nazardan badiiy matndagi ruhiy holat ifodasini muayyan vaziyat, munosabat va kommunikativ vazifa doirasidagi nutqiy voqelik sifatida o'rganish lozim.

Nutq hosil bo'lishining psixologik mexanizmlarini izohlashda W. Levelt qarashlari nazariy dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Olim nutqni kommunikativ niyatning yuzaga kelishidan boshlanadigan va artikulyatsiya bilan yakunlanadigan murakkab jarayon deb tavsiflaydi. (Levelt, 1989). Ushbu jarayonda avval so'zlovchining kommunikativ maqsadi va xabar mazmuni shakllanadi, keyin mazmun lingvistik birliklarni tizimlashtirish bilan voqelanadi.

Boshqa tomondan, nutqning shakllanishiga faqat individual psixologik

omillar ta'sir qilmaydi. So'zlovchi muayyan til jamoasining a'zosi sifatida mavjud kommunikativ me'yorlar, ijtimoiy rollar, madaniy tajriba va axloqiy me'yor talablariga amal qiladi. Bir xil mazmunning rasmiy yig'ilishda, do'stona suhbatda yoki ichki monologda turlicha voqelanishi bunga yaqqol misoldir. Demak, nutqning psixologik xususiyatlari ijtimoiy-kommunikativ sharoitdan ajratilgan holda izohlanishi mumkin emas. Til birliklarining tanlanishi ham shu jarayonning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Lug'aviy semasiga ko'ra bir-biriga ma'nodosh birliklar har doim ham ayni bir xil kommunikativ qiymatiga ega emas. So'zlovchi sinonimik qatordan ma'lum bir birlikni tanlar ekan, uning denotativ mazmunidan tashqari uslubiy, ekspressiv, yoki assotsiativ imkoniyatlarini ham hisobga oladi va shu asnoda nutqdagi leksik tanlov shaxsning voqelikka munosabati va kommunikativ strategiyasini ochib beruvchi omilga aylanadi. Xuddi shunday tanlov cheklanishi grammatik vositalarda ham kuzatiladi. Shaxs olmoshlarining tanlanishi kommunikativ masofani, modal birliklar so'zlovchining ishonch darajasini, yuklamalar esa munosabat va kommunikativ urg'uni ifodalashi mumkin. Shu bois nutqning psixologik jihatini belgilashda leksik birliklarning lug'aviy ma'nosidan ko'ra, ularning kontekstual vazifasi muhimroq bo'ladi. Kontekst nutq mazmunini talqin qilishning asosiy omillardan biridir. Masalan, "yaxshi", "albatta", "balki", "menimcha" kabi birliklarning psixologik-kommunikativ qiymatini faqat lug'aviy ma'nosi asosida aniqlash yetarli emas. Ularning haqiqiy funksiyasi gapning umumiy mazmuni, ohang, adresat bilan munosabat, oldingi nutq va kommunikativ vaziyat orqali belgilanadi. Lingvopsixologik tahlil dastlab nutqning leksik, grammatik va sintaktik belgilarning kommunikativ vazifasini belgilashni taqazo qiladi. Bunda kontekstual dalillarga tayanish lozim. Masalan, gapda bir so'z takrorlanishi asosida so'zlovchining muayyan psixologik holati haqida qat'iy hukm chiqarib bo'lmaydi. Bizningcha, nutqning lingvopsixologik ko'lami verbal shakl – kognitiv jarayon – kommunikativ niyat – kontekst – interpretatsiya zanjiri asosida tasavvur qilinishi mumkin. Mana shu talqinda nutqiy akt shaxsning kognitiv va kommunikativ faoliyati natijasi deb anglashiladi. Tahlilning asosiy vazifasi lingvistik fakt bilan psixologik talqin orasidagi chegarani saqlagan holda, ikkalasining o'zaro aloqasini tizimli yoritishdan iborat.

Ruhiy holat mazmunining badiiy matndagi ko'rinishini lingvopsixologik aspektda quyidagi kontekst misolida yotitish mumkin. Nilufar Turg'unovaning "Arg'imchoq" hikoyasida ruhiy kechinmalar qahramonning xotirasi, idroki, xatti-harakati va nutqidagi o'zgarishlar orqali ochib beriladi. Shu jihatdan parcha ruhiy holatning ichki kechinmadan tashqi ifodagacha bo'lgan jarayonini yaxlit holda kuzatish imkonini beradi. Jumladan, ushbu gap ruhiy kechinmaning bir necha bosqichda shakllanib, turli til vositalari orqali ifodalanishini ko'rsatadi: *"Derazadan mo'ltirab turgan ko'zlar yomg'ir ostida qolgan eski arg'imchoqqa uzoq-uzoq termulardi."* Bu gapda qahramonning *"mo'ltirab turgan ko'zlari"* va arg'imchoqqa *"uzoq-uzoq termulishi"* uning ichki kechinmasini tashqi xatti-harakat orqali anglashga undaydi. Bu o'rinda ruhiy holatning nutqiy ifodasi tashqi belgilar ta'siri asosida amalga oshirilgan. Yana bir misolda ruhiy holat xotiralash orqali ifodalanadi *"bu bahorgi yomg'irlar Behruzga yoshik xotiralarini eslatardi"* Yomg'ir – tabiat hodisasi, ammo bu o'rinda tabiat hodisasi qahramonning individual tajribasi bilan bog'langan psixologik qo'zg'atuvchiga aylanadi. Bu jarayon *"O'sha kundagi voqeaga ikki yil bo'lgan bo'lsa-da, kechagidek ko'z o'ngida, yodiga muhrlangan..."* gapi bilan mustahkamlanadi. Vaqt o'tganiga qaramay voqeaning *"kechagidek"* xotirada saqlanib qolishi ruhiy ta'sirning davomiyligini ko'rsatadi. *"Sabrina o'rnidan sapchib turib, oynadan arg'imchoqqa qarab afsuslandi"* gapida *"afsuslandi"* fe'li kechinmani to'g'ridan-to'g'ri ifodalamoqda. Biroq matnda ruhiy holat mazmuni fiziologik belgilar orqali ham beriladi.

Masalan, *"Onaning yuragi qo'rqqanidan gursillab urardi"* gapida qo'rquv yurak urishining kuchayishi orqali tasvirlangan. Shuningdek, *"Oyoq-qo'li qonga bo'yalgan farzandini ko'rib, yuragi urishdan to'xtagandek bo'ldi"* gapida kuchli ruhiy zarba fiziologik holatga qiyoslangan. Bu kabi ifodalar ichki kechinmaning inson organizmidagi holatlar orqali tasvirlanishiga dalil bo'ladi. *"Jigarbandidan nima bo'lganini yonidagi ayoldan so'ray olmas, faqatgina uning orqasidan yugurib ketardi"* gapida ona vaziyatni anglashga intilayotgan bo'lsa-da, kuchli qo'rquv sababli savol bera olmaydi. Demak, chuqur ruhiy kechinma balki nutqning yo'qligi bilan ham tasvirlanishi mumkin. *"Behruz Sabinraning hayotdan ko'z yumganini tan olgisi kelmas edi..."* gapida qahramon voqelikni bilsa-da, uni ruhiy jihatdan qabul qilishga tayyor emas. Bu misolda ruhiy kechinma kishining ong faoliyatiga ta'sir qiluvchi jarayon deb talqin qilinadi. Hikoya *"Bu voqeaga ikki yil bo'lgan bo'lsa ham, o'sha arg'imchoq haligacha eski qayrag'ochga osig'liq..."* degan jumla bilan yakunlanadi. Bu o'rinda arg'imchoq qahramonning singlisi bilan bog'liq xotiralarini saqlab turuvchi ramziy obrazga aylangan.

Inson kechinmasining nutqiy ifodasi psixik ta'sir natijasida yuzaga keladigan murakkab jarayondir. Bunda ruhiy kechinma qanday psixologik jarayon orqali lisoniy shaklga kelganini aniqlash hodisa mohiyatini anglashga asos bo'ladi. Ruhiy kechinmaning o'zbek tilida ifodalanish xususiyatlari Olim Jumaboyevning "Bog'bon", Raimqul Suyarovning "Tobutsoz", Salim Abdurahmonning "Qadr", Sobir Sayhonning "Yurt sog'inchi", Husan Karvonlining "Qishloq", Erkin A'zamning "Bir daqiqa ko'zingni yum" va Xurshid Do'stmuhammadning "Duryog'di" hikoyalari tahlilidan anglashildi. Quyidagi jadvalda ruhiy holat ifodasida qo'llaniladigan lingvopsixologik mexanizmlarni sanab o'tamiz:

IFODA TURI	LINGVOPSIXOLOGIK MEXANIZM	MISOL
Bevosita nomlash	Kechinmaning tayyor lisoniy birlik orqali ifodalanishi	*"Uning ko'nglida vahima paydo bo'ldi."* O. Jumaboyev "Bog'bon"
Fiziologik reaksiya	Ichki holatning organizmdagi tashqi reaksiyaga aylanishi	*"Uning yuragi gursillab urar, qo'llari esa beixtiyor titrardi."* R. Suyarov "Tobutsoz"
Xatti-harakat orqali ifodalash	Kechinmaning ongdan harakatga ko'chishi	*"U bir zum jim qoldi-da, boshini egib, sekin tashqariga chiqib ketdi."* O. Jumaboyev "Bog'bon"
Xotira orqali ifodalash	Avvalgi tajribaning qayta faollashib, hozirgi ruhiy holatni shakllantirishi	*"U uzoq yillardan beri ko'rmagan yurtini esladi, ko'z oldiga bolalik kunlari keldi."* S. Sayhon "Yurt sog'inchi"
Makon assotsiatsiyasi	Makonning individual tajriba bilan psixologik mazmun kasb etishi	*"Qishloq ko'chalari unga bolalik yillarini, otasining mehrli chehrasini eslatardi."* H. Karvonli "Qishloq"
Nutqiy murojaat	Ichki kechinmaning kommunikativ ehtiyoj asosida nutqqa aylanishi	*"Ota, meni kechiring, dedi u boshini egib."* S. Abdurahmon "Qadr"
Ichki nutq	Ongdagi kechinmaning qahramon ichki nutqida namoyon bo'lishi	*"Nega bunday bo'ldi? Nahotki, men bunga yo'l qo'ygan bo'lsam?"*Erkin A'zam "Bir daqiqa ko'zingni yum"

Nutqiy takror	Kuchli kechinmaning ongda qayta jonlanishi va nutqda takrorlanishi	*"Yo'q, yo'q, unday bo'lishi mumkin emas. Yo'q!"* Erkin A'zam "Bir daqiqa ko'zingni yum"
Metaforik ifoda	Ichki tajribaning obrazli va ko'chma mazmunga aylanishi	*"Ko'nglining osmonini qora bulutlar qoplagandek edi."* *X*. Do'stmuhammad "Duryog'di"
Ramziy ifoda	Predmet yoki obrazning individual kechinmani qo'zg'atuvchi belgiga aylanishi	*"U stol ustidagi eski suratga uzoq tikilib qoldi."* *X*. Do'stmuhammad "Duryog'di"
Ichki qarshilik	Voqelikning psixologik jihatdan qabul qilinmasligi	"*Yo'q, bu rost emas. Men bunga ishonmayman, deb o'zini o'zi ovutardi."* R. Suyarov "Tobutsoz"
Sukut	Kuchli kechinma ta'sirida nutqiy faoliyatning cheklanishi	*"U hech narsa demadi. Uzoq jim qoldi, ko'zlarini yerga qadadi."* S. Abdurahmon "Qadr"

1-jadval. *O'zbek tilida ruhiy holat mazmunini ifodalashning lingvopsixologik mexanizmlari*

Zamonaviy o'zbek nasridan shakllantirilgan misollar bazasi tahlilidan holat ifodasining lingvopsixologik xususiyatlari psixik jarayon, aqliy faoliyat, individual tajriba, subyektiv munosabat, vaziyat, nutqiy faoliyat kabi ma'nolar kesimida shakllanishi anglashildi. Sanab o'tilgan omillar o'zaro bog'liq holda ruhiy holatning ongda shakllanishi, anglashilishi va nutqda ifodalanish jarayonini yuzaga keltiradi. Yuqorida tahlil qilingan ruhiy kechinmalar oxir-oqibat muayyan til vositalari orqali namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillari insonning ichki kechinmalarini ifodalash uchun umumiy imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, ularning konkret vositalari va obrazlari bir xil emas. Fikrimizni dalillash uchun J. Morissonning "Clifftop discovery" nomli hikoyasiga to'xtalamiz.

Hikoyadagi Juliya obrazining Kornuellga qaytishi o'n yil avvalgi yo'qotish bilan bog'liq xotiraning jonlanishiga sabab bo'ladi. Buni *"Finding herself back in Cornwall was a surprise to Julie"* hamda "*She'd vowed never to return after that first disastrous holiday here"* gaplaridan anglash mumkin. Bu o'rinda *surprise* ruhiy kechinmani bevosita nomlaydi, that first disastrous holiday birikmasi subyektiv tajriba, yoqimsiz taasurotlarga ishora qiladi. Bu makon qahramonda yo'qolgan unashtiruv uzugi bilan bog'liq salbiy xotirani uyg'otadi. Muallif buni *"Julie couldn't fathom why Adam wanted to go back"* deya alohida ta'kidlaydi. Bu o'rinda ayni bir makonning ikki shaxs tomonidan turlicha idrok qilinishi subyektiv munosabatning ruhiy holat shakllanishidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Juliya uchun Kornuel bilan bog'liq xotira vaqt o'tishi bilan ham o'z kuchini yo'qotmaydi: *"She'd thought about her engagement ring many times over the years." "She wondered if it wallowed deep in some drain at the cottage they'd rented, or if it had fallen off in a supermarket, or on the street"* gapi xotiraning tasavvur jarayoni bilan birlashganini, nadomadga aylanganini ko'rsatadi. Qahramon uzukning qayerdaligini bilmaydi, shuning uchun yo'qotgan qimmatli buyumini turli joylarda tasavvur qiladi. Ayniqsa, *"Imagining it on someone else's finger made her wince"* gapida psixik jarayonning fiziologik reaksiyaga o'tishini ko'ramiz, made her wince ushbu tasavvurning bevosita tana reaksiyasini keltirib chiqarganini ifodalaydi. Kornuel

haqidagi har qanday ko'rsatuv Juliya ruhiyatida avvalgi kechinmani jonlantiradi: *"she'd switch channels as quickly as possible, heart thumping just like it had when she'd noticed her ring had gone."* Bu yerda heart thumping ichki kechinmaning fiziologik ifodasi bo'lib, o'tmishdagi hodisa haqidagi xotira hozirgi vaziyatda yurak urishining kuchayishi obrazi bilan tasvirlanadi. Hikoyada Juliya ruhiyatidagi xavotirning nutqiy ifodasi *"A worry niggled at the back of Julie's mind"* jumlasi bo'lib niggled at the back of her mind birikmasi ushbu xavotirning ongda doimiy ravishda mavjud ekanini, qahramonni ichdan bezovta qilayotganini anglatadi. *"That first view of the Minack Theatre perched on a rocky outcrop at the edge of the sea made Julie gasp with delight"* jumlasida *delight* ijobiy kechinmani nomlaydi, *gasp* uning fiziologik namoyon bo'lishini bildiradi. Tahlildan anglashiladiki, ingliz badiiy diskursida ruhiy holatni tasvirlashda insonning ongida kechuvchi psixik jarayonlar, individual tajribasi va vaziyatni subyektiv talqin qilish, fiziologik reaksiya, xatti-harakat va turli lisoniy vositalardan foydalaniladi.

References:

1. Halliday, M. (1987). *Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning*. University Park Press.
2. Levelt, W. (1989). *Speaking: From Intention to Articulation*. The MIT Press.
3. Vygotsky, L. (1986). *Thought and Language* (trans. A. Kozulin.) MIT Press.
4. Леонтьев, А. А. (2003). *Основы психолингвистики: учебник 3-е изд., перераб. и доп.* Смысл; Лань.